

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI**  
**RESPUBLIKA MADANIYAT MUASSASALARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH**  
**ILMIY-METODIK MARKAZI**

**AXBOROT XATI**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28 yanvardagi PQ-60-son Farmoni ijrosi yuzasidan**

*O'zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, Respublika baxshichilik san'ati, O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti va Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti bilan hamkorlikda*

Fozil Yo'ldosh o'g'lining 150 yilligi hamda Qodir shoir Rahimov tavalludining 85 yilligini munosib nishonlash maqsadida **“BAXSHICHILIK AN’ANALARI VA EPOS TARAQQIYOTI”** mavzusidagi respublika ilmiy – amaliy anjumanni **2022 yil 14 dekabr kuni O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat institutida** o'tkazishni e'lon qiladi.

Mazkur anjumanda respublika miqyosida faoliyat yuritayotgan mutaxassis olimlar, shu sohada izlanishlar olib borayotgan doktorant, tadqiqotchi, magistrantlar va boshqa mutaxassislar ishtirok etishi ko'zda tutilgan.

*Anjuman quyidagi yo‘nalishlarda ish olib boradi:*

1. Baxshichilik an'alarining bugungi saqlanish holati: muammo va yechimlar.
2. Baxshichilik san'ati va Fozil Yo'ldosh o'g'li hamda Qodir shoirning ijodiy merosi.
3. Epos va yozma adabiyot munosabati.
4. Eposda ta'lif-tarbiya, urf-odat va an'analar.

*Konferensiyaga taqdim etilayotgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan talab va ularni rasmiylashtirish tartibi:*

-Maqola va tezislar hajmi 4-6 bet. Microsoft Word, Times New Romanda 14 shriftda, 1,5 intervalda, chap tomondan 3 sm, o'ng tomondan 1,5 sm, yuqori va past tomondan 2 sm qoldirilgan holda yoziladi. Fayl nomlari muallifning familiyasi bilan nomlanadi.

-tezis mavzusi bosh harflarda (14 shriftda) o'rtaga yozilib, keyingi satrda muallif(lar) ismi-sharifi, ish joyi, ilmiy darajasi va unvoni. Undan 1,5 interval pastda xat boshidan tezis matni yoziladi;

-barcha iqtiboslar kvadrat qavsda beriladi [3;112];  
-foydalanilgan adabiyotlar tezis yoki maqola oxirida alfavit tartibida keltiriladi;

-tezis elektron nusxada topshiriladi;

Konferensiya materiallari elektron shaklda **2022 yil 5 dekabrga** qadar (+99891)947-04-32 (Fozilova Gulbahor Hasanovnaning) telefon raqamiga telegramm akkaunti orqali qabul qilinadi.

Tashkiliy qo‘mita maqola va tezislarni tahrir qilish huquqiga ega, ekspertlar xulosasiga ko‘ra talabga javob bermaydigan materiallar qabul qilinmaydi. To‘plamda e’lon qilinadigan maqola va tezislар uchun har bir beti 25.000 so‘m. Konferensiya materiallarini to‘plam shaklda chop etish va elektron shaklda tarqatishni Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi o‘z zimmasiga oladi.

***Tashkiliy qo‘mita manzili:***

*Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi Toshkent shahri Shayxontohir tumani Navoiy ko‘chasi 30-uy.*

***Murojaat uchun tel:*** (+99891)947-04-32